



INGLIZ TILI GRAMMATIKASIDA KELISHIKLAR MUAMMOSI

Xotamova Parvina Ilxomovna

SamDChTI “Ingliz filologiyasi” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ma'lumki, gap qurilmasining sintaktik tahlili doir tilshunoslarning turlicha yondashuvlari mavjud. Ayniqsa aksariyat tillarning an'anaviy grammatikalarida gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni gap bo'laklariga, ya'ni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilish keng tarqalgan. Ammo, gapning sintaktik tahliliga ushbu yondashuv hozirgi zamon talablariga to'liq javob berolmasligi gapning sintaktik tahliliga lingvistik metodlar asosida yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda.

Kalit so'zlar: qurilma, sintaktik, kelishik, nominativ, akkuzativ, instrumental, genetiv, dativ, paradigmatic.

Аннотация: Известно, что лингвисты по-разному подходят к синтаксическому анализу структуры предложения. В частности, в традиционных грамматиках большинства языков широко распространен анализ синтаксических единиц, входящих в структуру предложения, путем их деления на части предложения, то есть на главные и второстепенные. Однако тот факт, что такой подход к синтаксическому анализу предложения не в полной мере отвечает требованиям настоящего времени, требует нового подхода к синтаксическому анализу предложения, основанного на лингвистических методах.

Ключевые слова: структура, синтаксис, согласование, номинативный, винительный, творительный, родительный, дательный, парадигматический.

Abstract: It is known that linguists have different approaches to the syntactic analysis of the sentence structure. In particular, in the traditional grammars of most languages, it is widespread to analyze the syntactic units involved in the sentence structure by dividing them into sentence parts, that is, into primary and secondary parts. However, the fact that this approach to the syntactic analysis of the sentence does not fully meet the requirements of the present time requires a new approach to the syntactic analysis of the sentence based on linguistic methods.

Key words: structure, syntactic, agreement, nominative, accusative, instrumental, genitive, dative, paradigmatic.

KIRISH.

Hind-Ovropa tillar oilasiga mansub bo'lgan tillar tizimida kelishik kategoriyasi tilshunoslar o'rtasida baxs talab masalalardan biri xisoblanadi. Ushbu tillarda kelishiklarni tasniflashda Rus, Ukrain, Chex, Bulg'or, German xamda ingliz tillar tizimida ikki kelishikdan yettitagacha, eston tilida o'n to'rtta, finlandiya tilida o'n beshta, vengriya tilida yigirma ikkita, dog'iston tilida ellik to'rttagacha ajratganiga guvox bo'lamiz.

Jumladan, kelishik kategoriyasini tarixiy taraqqiyotiga e'tibor berilganda, qadimgi ingliz davrida B. A. Ilishining tasnifida otlarda "nominative, "genetive, "dative, "instrumental dative, "accusative kabilarga ajratgan, o'rta ingliz davrida otlarda "common case, "genetive case, kishilik olmoshlarida "nominative and objective kelishiklar mavjudligi e'tirof etilsa, yangi ingliz davrida ham common and genetive (bosh va qaratqich) kelishiklar saqlangan, kishilik olmoshlarida 16 chi asrlarda nominative "ye" va obyektive "you" yuqola boshladi.

I. P. Ivanova, L. P. Chaxoyanlarning fikricha qadimgi ingliz davrida, umuman german tillarida ot to'rtta kelishik paradigmatikasi mavjud; imenitelniy, roditelniy, datelniy, vinitelniy", o'rta ingliz davrida uchta kelishik imenitelniy, roditelniy, datelniy" kelishiklar XV asrga kelib ikkita kelishik qoldi. Kishilik olmoshlarida to'rtta, ko'rsatish va so'roq olmoshlarida beshta imenitelniy, roditelniy, datelniy, vinitelniy, tvoritelniy kelishiklar



bo'lgan. O'sha davrda kishilik olmoshlarining qaratqich kelishik shaklidan egalik olmoshlari vujudga keldi.

Xozirgi zamon tilshunosligida V. G. Vetitskiy ta'kidlashicha eston, finland, venger tillarida quyidagi kelishiklar; nominative, genitive, dative, accusative, ablative, vocative, allative instrumentive, essive, abessive, comitative, illative, ellative kabilar e'tirof etilgan .

Yuqorida qayd qilinganlardan ma'lumki, ingliz tilida kelishik kategoriyasi muammosi tilshunoslar o'rtasida bir to'xtamga kelinmagan. Bundan tashqari inglizshunos olimlardan H.Sweet inumerated vocative , accusative and genitive cases , Y.O. Curme mentioned nominative, accusative, dative and genitive cases , J.Fernald mentioned nominative, possessive and objective cases .

Mana shu faktlardan ma'lumki ingliz tilida kelishik kategoriyasi hamon o'z yechimini to'liq hal qilinmaganligidan dalolatdir. XXI-asrga oid ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarida “ common case , possessive case , or genitive case ” kabilar e'tirof etilgan. [Slabodkina and others , 2007, 9, Ivanova, Burlakova, Pocheptsev, 1981,26; Quirk, Greenbaum, Leech, Svartvik, 1982,89].

Hozirgi zamon ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarida qaratqich kelishigining nomi ikki xil, ya'ni possessive yoki genitive case atamallari ishlatilib kelinmoqda.

Masalan, L.P. Vinokurova ta'kidlashicha , ingliz tili ot so'z turkumida ikkita kelishik mavjud; Umumiy kelishik – The common case va qaratqich kelishik –the Possesive case. Ingliz tilida otlarning qaratqich kelishigi ikki usul yordamida ifodalanadi: a) otlarga apostrof s qo'shilishi bilan ; b) of predlogi yordamida : the old mens death → the death of the old man . Lekin ular har doim ham bir-birini erkin almashtira olmaydi ; a) the voice of the actress → the actresss voice; The apperance of the princess → the princesss apperance .

Yana bir so'z birikmasida ikki marta 's qo'llanilmaydi, ularni bir-birini o'rniga of predlogi ishlatiladi: My husbands sisters family →The family of my husbands sister.

Umuman's qo'yidagi otlarga qo'shish mumkin:

- 1) Hayvonlarni ifodalovchi otlarga: the horses tail, the lions skin;
- 2) paytni ifodalovchi otlarga : a weeks time, a minutes pleasure;
- 3) mamlakat va shaharlarni ifodalovchi otlarga, ba'zan yil va oylarni ifodalovchi otlarga: Leningrads traffic; the worlds history; a summers day;
- 4) jonsiz predmetlarni ifodalovchi otlarga; the rooms atmosphere, the cars light.

V. N. Jigadlo, I.P. Ivanova, L.L. Iofiklar otlarning kelishik kategoriyasidan qaratqich kelishigini ikkiga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: a) tobe qaratqich kelishigi; b) tobe bo'lmagan qaratqich kelishigi .

Tobe qaratqich kelishigi tobe bo'lmagan qaratqich kelishigidan farqlashda qo'yidagilarga e'tibor berish kerakligi ma'lum :

1. Jonli otlar tobe qaratqich kelishigida aniqlanmish oldida egalikni ifodalashi mumkin: the doctors house.

2. Ushbu kelishikda butunlikning bir qismiga bo'lgan munosabatini anglatadi: the young mans face.

3. Ot qaratqich kelishigida ma'lum sifat yuklatilgani, holat yuklatilganligini, sub'ektning harakat ijrochisi ekanliklarini ifodalaydi: all Joes readiness of thought and action [Dickens] , Constances wrath [Benn], his sons return.

4. Aniqlanmishga ot qaratqich kelishigida ob'ekt munosabatda bo'lganida, aniqlanmish ish-harakatini ifodalaydi: the strangers entertainment; Daniels trail.

5. Paytning ma'lum qismini, in an hours time; masofani, narxini anglatadi; a hundred years distance, a few shillings worth.

Tobe bo'lmagan qaratqich kelishigida kelgan ot uch holatda uchrashi qayd etilgan:

1. Ushbu kelishikda kelgan ot aniqlanmishsiz berilib, uni gapning boshqa qismidan aniqlash mumkin; What a very uncertain temper Mrs. Vardens was!

2. Tobe bo'lmagan qaratqich kelishigida ot aniqlovchi so'z birikmasida ishlatilib, unda ot aniqlanadi: a gift of Sowerberrys.

3. Mazkur kelishikda ot manzil, makon ma'nosini ifodalaydi : I saw him at Mrs. Rudges this evening.

Umuman olganda ingliz tili ot so'z turkumida kelishik kategoriyasi ko'pgina holatlarda munozarali va



tushunarli emas deb L.S. Barxdarov ta'kidlab, qaratqich kelishigini sintaktik sathda Possesive Genetive, Subjunctive Genetive, Objective Genetive, Adverbial Genetive, Equational Genetive, Genetive of destination kabilarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi . Olimning yana bir fikri diqqatga sazovorki, egalik kategoriyasini nafaqat otning qaratqich kelishigi orqali ifodalanadi, to have fe'lining semantikasidan kelib chiqishni ham unutmasligimiz lozim . Masalan : Jons car –Jon has a car . Undan tashqari bog'lama fe'l tarkibli ot kesim o'rnida kelganda gapning ega o'rnida kelgan otda egalik ma'nosi mavjud.

Mary is happy, Bill is silent. Bunday holatga ishonish ancha mavhum masala chunki kelishik kategoriyasi morfologik kategoriya hisoblanadi.

M.D.Rezvetsova, O.V.Afanaseva, T. S. Samoxinalar “ Praktikum po sravnitel'noy tipologii angliyskogo i russkogo yazskov” o'quv qo'llanmasida hozirgi zamon ingliz tilida kelishik bormi ? degan savol qo'yilib , unda ko'proq grammatikalizatsiyalashgan predloglarni otlar bilan birikib kelishiga va ularning semantik nuqtai nazaridan kasb etilayotgan ma'noga e'tibor beriladi, shu bilan birga ingliz tili otlarida morfologik ko'rsatkichsiz the common case (Umumiy yoki bosh kelishik) va morfologik ko'rsatkichli The possessive case (qaratqich kelishigi) mavjudligini e'tirof etishadi. Ammo otlarning gap tarkibida bosh kelishikda ishlatilishi 98% ni tashkil qiladi, qaratqich kelishigining yasashida apostrof s morfologik ko'rsatkich, of predlogi yordamida ifodalanishi sintaktik sathda namoyon bo'ladi.

Yuqorida izoh berilganlardan ma'lum bo'lishicha , ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarida kelishik kategoriyasining ikki shakli mavjud deb ko'rsatiladi. Kelishik munosabatlari narsa, harakat va holatning otning o'zida ba'zi bir shakliy belgilar orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Zamonaviy ingliz tilida kelishik kategoriyasi muammosi ancha munozarali masalalardan biridir. [Usmonov, Ashurov, 2012, 23]. Ba'zi olimlar ingliz tilida kelishiklar soni ikkidan ortiq deyishsa, ayrim olimlar esa ingliz tili otlarida kelishiklar umuman mavjud emas . [Simirnitskiy, 1957, 62]

Ayrim olimlarning fikricha bir gap tarkibida qaratqich kelishigining ifodalanish shakli ingliz tili otlarida uch martadan ortiq ishlatilmaydi [Choriev, 1990 34-35]

Ingliz tili misolida bosh kelishikdan tashqari qaratqich kelishigini ifodalovchi 's haqida to'xtalib , G. Pal'mer va G.N.Vorontsova 's morfemani yordamchi so'z – “posselogg” deb atashga harakat qiladi. [Palmer , 1927, 36-37; Vorontsova, 1948, 9]. Boshqa bir qator tilshunoslar ingliz tilida “roditel'nyy padej” mavjudligini e'tirof etsalarda uni “prityajatel'nyy padej” deb atasalar to'g'ri bo'ladi. Chunki “roditel'nyy” otlardagi kelishik nomidir, a “prityajatel'nyy esa sintaktik munosabatni anglatishga xizmat qiladi. [Espersen, 1958, 207]. Shu bois uni “prityajatel'naya konstruktsiya” yoki “prityajatel'naya sintagma” deb atash mumkin.

Ushbu masala bo'yicha , ya'ni ingliz tili ot so'z turkumida kelishik kategoriyasi haqida O'.U.Usmonov R.A.Nosirova, D.T.Kubeysinovalar ta'kidlashicha “.....agar of predlogini ingliz tilida qaratqich kelishigini ifodalovchi marker deb hisoblasak, boshqa predloglar yordamida o'n beshtadan ortiq kelishiklarni qayd qilish mumkin:

In the room-lokativ adessiv, to the room- lokativ allativ, from the room –lokativ ablativ, via Samarkand-lokativ translativ , with a pen-instrumental, with John- sotsiativ va hokazolar.

Ma'lumki, XX-asr oxiri XXI-asr boshlarida nashr etilgan badiiy asarlar va ilmiy ishlar matnlarida qaratqich kelishigining –'s shakli deyarli uchramaydi. Undan tashqari of predlogi har doim ingliz tilidi qaratkich kelishik ma'nosini ifoda etavermaydi. Shunga asosan ingliz tilida morfologiya sathda kelishik kategoriyasi o'z ta'sirin kuchsizlantirganltgining guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sweet H. A new English Grammar, Logical and Historical, part I, Oxford, 2006.
2. Ivanova I.P., Burlakova V.V., Pochentsov G.G., Teoreticheskaya grammatika sovremennogo angliyskogo yazika. Moskva, «Visshaya shkola», 1981.
3. QuirkR., GreenbaumS., Leech G., Svrtvik J. A University Grammar of English. Moscow, «Vyssayaskola», 1982
4. Vinokurova L.P. Grammatika angliyskogo yazika. Leningrad, “Uchpedgiz”, 1954.



5. Jigadlo V.N., Ivanova I.P., Iodin L.L. Sovremenniy angliyskiy yazyk. Teoricheskiy kurs grammatiki. Izd. lit. na inostrnix yazykax, Moskva: 1956.
6. Barxudarov L.S. Ocherki po morfologii sovremennogo angliyskogo yazyka. Moskva, “Visshaya shkola”, 1975.
7. Rezvetoova M.D., Afanaseva O.V., Samoxina T.A. Praktikum po sravnitelnoy tipologii angliyskogo i russkogo yazykov. Moskva, 1989.
8. Usmonov O’U., Ashurov Sh.S. Ingliz tili nazariy grammatikasi (nazariy grammatikadan amaliyot), o’quv-uslubiy qo’llanma, Samarqand, 2012,
9. Smirnitkiy A.I., Sintaksis angliyskogo yazyka. Moskva, 1957.
10. Chariev A. Sintaksiko-semanticheskie priznaki roditelnogo padejav uzbekskom i angliyskom yazykax, “Fan”, Tashkent, 1990.
11. Chariev A. Sintaksiko-semanticheskie priznaki roditelnogo padejav uzbekskom i angliyskom yazykax, “Fan”, Tashkent, 1990, 92 s.
12. Palmer H.B. A Grammar of Spoken English Cambridge, 1927.
13. Vorontsova G.N. Ob imennom fermente `S v sovremennom angliyskom yazike //Inostrannie yaziki v shkole, 1948, № 4-9.
14. Esnersen O. Filosofiya grammatiki. Moskva, 1958.
15. Muxin L.M. Sintaksicheskiy analiz i problema urovney yazyka. “Nauka”, Leningrad, 1980, 304 s.
16. Usmonov U.U., Nosirova R.A., Kubeysinova D.T. Actual Problems of English Theoretical Grammar (Training appliances for Higher Educational Establishments), Samarkand, 2015. 156 p.
- ¹ Холиков, Б. (2024). Образы пери (феи) и дэв (бесов) в циклах узбекского эпоса “Гороглы”. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 171-175.
- ¹ Kholikov, B. A. I-sho ‘ba the language of fantasy: linguistic features in mythological and fantasy literature. Ilmiy va professional ta’lim jarayonida muloqot, fan va madaniyatlar integratsiyasi, 17.
- ¹ Kholikov, B. A. (2020). Principles of development of detective literature. Bulletin of Gulistan State University, 2020(3).
- ¹ Kholikov, B. A. (2015). Poetic outcome of vital problems. In The Fifth European Conference on Languages, Literature and Linguistics (pp. 82-89).
- ¹ Холиков, Б. А. (2020). ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ МУАММОЛАРНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИДА ЁЗУВЧИ ИНДИВИДУАЛИГИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(6).
- ¹ Холиков, Б. А. (2014). " КРЁСТНЫЙ ОТЕЦ"-РЕАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ. Вопросы филологических наук, (2), 14-16.
- ¹ Kholikov, B. (2020). PATRIOTIC EDUCATION IN THE LITERARY PICTURE OF THE WORLD (ON EXAMPLES DETECTIVE NOVELS). In МИССИЯ КОНФЕРЕНЦИИ «ФЕНОМЕН ПАТРИОТИЗМА В ТРАНССТРУКТУРНОМ КОММУНИКАЦИОННОМ ПОЛЕ» (p. 157).